



BUXGALTERIYA BALANSIGA UMUMIY TAVSIF VA BUXGALTERIYA BALANSI HISOBOTINI TUZISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

N.M. Sharipova

Termiz davlat universiteti "Buxgalteriya hisobi" mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

E-mail: mansurovnaa02@gmail.com

Jumayev Behzod Sa'dullayevich

Termiz davlat universiteti "Iqtisidiyot" mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

G-mail: jumayevb001@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18044280>

ARTICLE INFO

Received: 21st December 2025

Accepted: 22nd December 2025

Published: 24th December 2025

KEYWORDS

Aktiv, passiv, buxgalteriya
balansi, buxgalteriya hisobi
usulining muhim elementlari, .
korxonalarda hisobot davrida
sodir bo'lgan xo'jalik
muomalalari.

ABSTRACT

Mazkur maqolada xo'jalik faoliyati ustidan rahbarlik qilish va boshqarish uchun korxona qanday mablag'larga ega, ularning tarkibi va qayerda joylashganligi hamda bu mablag'lar qanday manbalardan tashkil topganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lishi kabi zaruriy tamoillar ko'rib chiqilgan.

Buxgalteriya balansi – buxgalteriya hisoboti aniq hisobot sanasida yakunlovchi, mablag'larning sarflanishi, manbai va maqsadini ta'riflovchi, jamlovchi, umumlashtirilgan jadvalda pul hisobida aks ettiruvchi hujjat hisoblanadi. Buxgalteriya balansi korxona, tashkilot, firma va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkiy holatini qiymat ko'rinishida ta'riflab beradi. Buxgalteriya balansi umumlashtirilgan jadval shaklida korxonaning mulklari tarkibini, ularning joylashtirilishini, manbalarini, mablag'larning sarflanishi va safarbar etilishini hisobot sanasida qiymat jihatidan aks ettiradi. Buxgalteriya balansi 2 qismdan iborat bo'lib, chap tomoni aktiv, o'ng tomoni passiv deb ataladi. Aktiv va passiv bir-biriga teng bo'ladi. Korxonalarning xo'jalik mablag'lari hamma vaqt kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida harakatda bo'ladi va davrlar bo'yicha ham miqdor, ham qiymat jihatidan o'zgarib turadi. Xo'jalik mablag'larining tarkibi, joylanishi, harakati va ularning kelib chiqish manbalaridagi o'zgarishlarni bir-biriga solishtirib, ma'lum bir sanaga pul o'lchovida umumlashtirib aks ettirish buxgalteriya balansi yordamida amalga oshiriladi.

Buxgalteriya balansida korxonaning xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari umumlashtirilib, odatda, kunning oxiriga (banklarda) yoki hisobot davridan keyingi oyning birinchi kuniga pul o'lchovida tuziladi. Korxonalarda hisobot davrida sodir bo'lgan xo'jalik muomalalari maxsus hujjatlarda qayd qilinadi. Bu hujjatlarga asoslanib buxgalteriya provodkalari tuziladi va ular buxgalteriya hisobining sintetik schyotlariga tarqatiladi. Hisobot davri oxirida sintetik schyotlar bo'yicha aylanma vedomost tuziladi. Bunda hisobot davri boshidagi har qaysi sintetik schyotning boshlang'ich qoldig'i, hisobot davrida sodir bo'lgan aylanma summasi va hisobot davri oxiriga qoldiq summasi ko'rsatiladi. Buxgalteriya balansi korxonaning xo'jalik mablag'larini, bir tomondan, tarkibi, holati, joylanishi bo'yicha, ikkinchi tomondan, qanday manbadan paydo bo'lishiga qarab ma'lum bir sanaga pul o'lchovida yig'ib aks ettirish usulidir. Buxgalteriya hisobi bo'yicha xalqaro buxgalteriya standartlarida

buxgalteriya balansi balans hisoboti deb yuritiladi. Balans hisoboti korxonaning ma'lum sanaga bo'lgan moliyaviy holatini ko'rsatadi. Balans hisoboti korxonaning aktivlari, korxonaning boshqa huquqiy shaxslar va fuqarolarga bo'lgan majburiyatlari hamda aksiyali jamiyat shaklida faoliyat qiladigan korxonaning aksiyali kapitalining tavfsiloti bilan berilgan ro'yxatini ko'rsatadi. Buxgalteriya balansi moddasi deb iqtisodiy jihatdan bir xil bo'lgan xo'jalik mablag'larining ma'lum bir turi yoki xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbaini balansda alohida aks ettiruvchi ko'rsatkichga aytiladi. Aktiv tomonidagi balans moddalarining yig'indi summasi passiv tomonidagi balans moddalarining yig'indi summasiga teng bo'lishi shart. Chunki balansning aktiv va passiv tomonida xo'jalik mablag'lari va shu mablag'larning tashkil topish manbalari ikki tomonlama aks ettiriladi. Balans moddalarini guruhlashtirish xo'jalik mablag'larining maqsadga muvofiq foydalanishini to'la nazorat qilish va korxonaning faoliyatini tahlil qilish uchun imkoniyat yaratadi. Buxgalteriya balansini tuzishda ko'rsatib o'tilgan xo'jalik mablag'lari va manbalarining guruhlanishi asos bo'lib xizmat qiladi. Shunga asosan korxonalar yagona buxgalteriya balansining shakli umumqabul qilingan. Quyida misol sifaatida buxgalteriya balansining korinishini namunasini keltirilgan.

BUXGALTERIYA BALANSI — 1-sonli shakl — sug'urta**BUXGALTERSKIY BALANS — forma № 1 — straxovaniye**

_____20__ yilga na_____20__go d	Kodlar Kodi
BHUT bo'yicha 1- shakl Forma № 1 po OKUD	071000 1
Sug'urtalovchi Straxovshik _____	KTUT bo'yicha po OKPO
Tarmoq Otrasl _____	XXTUT bo'yicha po OKONX
Tashkiliy-huquqiy shakli Organizatsionno-pravovaya forma _____	THSHT bo'yicha po KOPF
Mulkchilik shakli Forma sobstvennosti _____	MSHT bo'yicha po KFS
Vazirlik, idora va boshqalar Ministerstva, vedomstva i drugiye _____	DBIBT bo'yicha po SOOGU
Soliq to'lovchining identifikatsion raqami Identifikatsionniy nomer nalogoplatelshika	STIR INN

Hudud	MHOBT	
Territoriya	SOATO	
Manzil	Jo'natilgan sana	
Adres	Data visilki	
O'lchov birligi, ming so'm	Qabul qilingan sana	
Yedinitsa izmereniya, tis. sum.	Data polucheniya	
	Taqdim qilish muddati	
	Srok predstavleniya	

1-ilova

Sug'urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakli "Buxgalteriya balansi" — 1-sonli shaklga muvofiq.

Aktiv moddalarining xususiyati shundaki, ular xo'jalik mablag'larining tarkibi, holati va joylanishini ko'rsatadi. Masalan asosiy vositalarning tarkibini har bir turi bo'yicha moddiy qiymatliklarni, pul mablag'larini va haqazo. Passiv moddalarida esa xo'jalik mablag'larining paydo bo'lish manbalari va ularning qanday maqsadga mo'ljallanganligi aks ettiriladi. Masalan, hamma fondlar, korxonaning turli xil qarzlari, joriy yilda olingan foyda va hokozolar aks ettiriladi. Moliyaviy hisobotlar ma'lum bir hisobot davri yoki ma'lum bir hisobot sanasi bo'yicha tuziladi. Bunda buxgalteriya balansi va hisobvaraqlardagi qoldiqlar bo'yicha ma'lumotlar ma'lum bir sanaga tuziladi, moliyaviy hisobot shakllarining qolganlari esa ma'lum bir davr uchun tuziladi.

Moliyaviy hisobotning hisobot davri 1 yanvardan 31 dekabr gacha bo'lgan davr kalendar yil hisoblanadi. Moliyaviy hisobot qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda kalendar yilidan farqli ravishda davrlar bo'yicha (oy, chorak uchun) ham taqdim etilishi mumkin. Moliyaviy hisobotlar uchun hisobot kuni hisobot davrining oxirgi kalendar kuni hisoblanadi. Sub'ektning buxgalteriya balansi uchun hisobot kuni 31 dekabr hisoblanadi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi yillik hisobot uchun hisobot davri 1 yanvardan 31 dekabr gacha bo'lgan davr hisoblanadi.

Buxgalteriya balansi (bundan keyin - balans) tuzilguniga qadar tahliliy hisobvaraqlar bo'yicha aylanmalar va qoldiqlar hisobot davri oxiridagi Bosh daftarning jamlama hisobvaraqlari bo'yicha aylanmalar va qoldiqlar bilan, albatta, solishtirilishi kerak.

Balansda «Dastlabki (tiklash) qiymat» moddasi (010-satr) bo'yicha asosiy vositalar o'z asosiy vositalari (ishlab turgan hamda konservatsiyada bo'lgan) va uzoq muddatga ijaraga olinadigan asosiy vositalarning, ularning hisobi asosiy vositalarini hisobga olish hisobvaraqlari (0100) va 0310-«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar» hisobvarag'ida amalga oshiriladi, dastlabki (tiklash) qiymati bo'yicha ko'rsatiladi. Bularning barchasi buxgalteriya balansining hisobotida akslantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qonun (2016) O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" (yangi tahriri). 2016 yil 13 aprel, O'RQ-404-son. Toshkent sh.

2. <https://lex.uz/mact/-1472739> elektron sayt. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'i sug'urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakllarini va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2016. – № 15. – 172-modda.
4. Buxgalteriya hisobining milliy standarti № 1 "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" // norma.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma (105-son, 17.12.2010). – T.: 2010.

